

BOSHLANG'ICH SINF O'QUV JARAYONIDA KO'RGAZMALILIK

Nabijonova Zilola Yo'lvoy qizi

Farg'ona davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

20.65 guruh talabasi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ko'rgazmalilik hamda ko'rgazmali vositalarda foydalanish dars samaradorligida ko'rgazmali vositalarning ta'siri masalasi ochib berilgan. Metod tushunchasi, darslarda ko'rgazmalar asosida yangicha metodlarni ishlab chiqish mohiyati olimlar fikrlari va qarashlari asosida yoritilgan. Ko'rgazmali materiallarning harakterli xususiyatiga ko'ra turlari ajratilgan, boshlang'ich sinf xususiyatlariga ko'ra ko'rsatmali va ko'rgazmali vositalar farqlangan.

Kalit so'z va iboralar: ko'rgazmalilik, vosita, metod, boshlang'ich sinf, o'quv jarayoni, material, ta'lim, ko'nikma, malaka.

Аннотация:

В статье рассматривается проблема наглядных пособий в учебном процессе начальной школы и влияние их использования на эффективность урока. Понятие метода, суть разработки новых методов на основе демонстраций на уроках, объясняются на основе идей и взглядов ученых. Виды наглядных материалов различаются в зависимости от их особенностей, а учебно-наглядные пособия — в зависимости от особенностей начальной школы.

Ключевые слова и фразы: демонстрация, инструмент, метод, начальная школа, образовательный процесс, материал, образование, навыки, квалификация.

Abstract:

This article discusses the issue of the use of visual aids in the primary school educational process and the impact of visual aids on the effectiveness of the lesson. The concept of the method, the essence of developing new methods based on exhibitions in the lessons are highlighted based on the opinions and views of scientists. Types of visual materials are distinguished according to their characteristics, and instructional and visual aids are distinguished according to the characteristics of the primary school.

Keywords and phrases: visual aids, tool, method, primary school, educational process, material, education, skills, qualifications.

Pedagogikaning ta'lim nazariyasidan bizga ma'lumki, ta'lim printsiplari – bu o'qituvchining faoliyatini va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun-qoida va yo'l-yo'riqlaridir. [1.94-112]

Har bir o'qituvchi shuni anglab yetishi muhimki, o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun bu ishda o'zini oqlagan pedagogik qonun-qoidalar, didaktik qoidalardan ijodiy foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi o'quv-tarbiya jaryonini tashkil etishda ta'lim metodlaridan oqilona foydalanib, ilmiy-pedagogik asosda dars o'tishi o'quvchilarni hayotda o'z o'rnini topishida, ongining shakllanishida katta asos bo'lib xizmat qiladi. [11.32-37]

Metod – yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlarni har qanday muammoni (maqsadni) uzatish va qabul qilish, harakteriga qarab quyidagi sinflarga ajratish mumkin: so'z orqali ifodalanadigan metod; amaliy metod. [1.94-112]

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalarga qarab, munosib o'rinda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning og'zaki usullari;
- o'qitishning ko'rgazmali usullari;
- o'qitishning amaliy usullari;
- o'qitishning muammoli izlanish va reproduktiv usullari;
- o'qitishning induktiv va deduktiv usullari;
- mustaqil ish usullari;
- o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini rag'batlantirish va tanbeh berish usullari;
- o'qitishda nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish usullari.

O'qitish jarayonida ko'rgazmalilik usulidan foydalanishning muhimligi o'qituvchining o'rganilayotgan narsa va hodisalarini hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o'qituvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgata bilishi bilan izohlanadi. [2.13]

Ta'lim ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi. Ta'lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materiallarning Harakteriga mazmuni, shakli va xajmiga bog'liqdir.

Maktablarimizda qo'llaniladigan ko'rgazmali materiallar o'z harakter xususiyatiga ko'ra ikki turda bo'ladi:

1. Aslicha ko'rsatilishi mumkin bo'lgan buyum va narsalar: o'simlik va ularning tarkibi, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va hokazo.
2. Tasviriy-ko'rgazmali materiallar. Ko'rgazmali qurollardan unumli foydalanish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilmoq zarur; o'quvchilarga mashg'ulot oldidan namoyish jarayonida ko'zlangan maqsad qisqacha tushuntiriladi; ko'rgazmali materiallar o'qituvchi

bayonining ma'lum paytida ko'rsatiladi yoki tarqatiladi; namoyish jarayoni o'qituvchi tomonidan izohlab beriladi. [3., 4., 5]

Boshlang'ich sinflarda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, darslar samaradorligini oshirishda ko'rgazmalikning ahamiyati benihoya kattadir. O'quvchilarni dars materiali haqida tassavurlarini kengaytirishda va ularni dunyoqarashini, xayolot olamini boyitishda asosiy o'qitish metodlari hisoblanadi. Tekshiruvlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bolani o'zlashtirish jarayoni ko'rsatgichlari uning sezgi analizatorlari orqali ko'rish, 83% eshitish 1% xid bilish azosi orqali 3,5% teri sezgisi orqali 1,5% tam bilish sezgisi orqali 1% bilimlarini olishini isbotlangan. Shu jihatdan ham ko'rgazmalilikning ahamiyati katta. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotganda qanday ko'rsatmali materiallardan foydalanishni aniq bilishi lozim.

Ko'rsatmalilik – didaktikaning oltin qoidasi, deyiladi. Har doim o'qituvchi darsdan kamida bir kun avval ko'rsatmali materiallarni o'tayotgan fani uchun ajratilgan xonaga hozirlab vidoproekda ekranga chiqarib, ko'rsatib qo'yilishi yoki turli mavzuga oid harita, tarqatma materiallar, turli xil predmetlar, rasmlar, o'yinchoqlar va boshqa materiallarni tayyorlash maqul.

Ko'rsatmalilik ta'lim printsiplariga ham kiritilib, har bir predmet darsida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladi. Bilimning birinchi pog'onasi jonli mushoxada, ya'ni tevarak atrofdagi narsalar va xodisalarni idrok etishdir. Ko'rsatmalilik prinsipi idrok etishni osonlashtirishi va nazariy bilimlarni hayot, amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Bu printsip o'rganilayotgan xodisalariga qiziqishni oshiradi, bilimlarni puxtaroq egallashlariga ko'maklashadi.

Umuman ko'rgazmali metodlar, illyustratsiya metodidan keng foydalaniladi. Bunda – plakt, Harita, doskadagi rasm olimlarning partretlari, sur'atlar va boshqalarni ko'rsatadi. Namoiish qilish metodida esa asboblar, tajribalar, texnik qurilmalar, turli tipdagi preparatlarni namoiish qilish bilan bog'liq, unga yana kinofilm va diafilmlar ham kiradi.

Buyuk tibbiyot sohasi olimi Ali Abu Ibn Sinoning qayd qilishicha, inson o'zining o'quv mashg'ulotlari boshlashida, narsaning tashqi xossalarini o'rganishda uning aslini va tasvirini ko'rib, o'zicha bevosita bilimlarni hosil qilishi mumkin. Har qanday fanda avval narsaning ta'rifi lozim. Ularning mavjudligini esa provard natijada isbotlash vositasida bilinadi, chunki ular mazkur fan aniqlaydigan xodisalaridan iborat bo'ladi: Ibn Sinoning ana shu xulosasi o'qitishdagi ko'rsatmalilikning faqat bir jihatini yoritadi, xolos, xulosada avvalo inson mavjud narsalarni yoki ularning tasvirini idrok etish tufayli unda obektiv voqeylik to'g'risida tasavvur hosil bo'lishi va inson ularni to'g'ri aks ettirishi takidlanadi.

Olimning ta'limotida ko'rsatmalilik tushunchasi idrok etishning har xil turlari-ko'rish, eshitish, sezgi va hokozalar bilan bog'langan. Idrok etish tashqi sezgi orqali amalga oshadi va ushlab ko'rish bilan ham ro'y beradi. Ushlab ko'rish sezilgan narsaning issiqligi, sovuqligi, namligi,

quruqligi, qattiqligi, yumshoqligi, og'irligi, yengilligi, shakli va hokozolarni bilish orqali amalga oshiriladi.

Teri va mushak sezgilarning qurolidir. Nervlar ana shu kuchli teri va mushaklarga yetkazadi. Ya.Komenskiy "Buyuk didaktika" nomli asarida "oltin qoidani" ifodalagan. "O'quvchilar, deb yozdi u, - sezib idrok etishi mumkin bo'lgan narsalarni, albatta sezgi vositasi bilan xususan; ko'rish mumkin bo'lgan narsalardan ko'z bilan ko'rib, xidi bor narsalarni xidlab ko'rib, tamini sezish mumkin bo'lgan narsalarni-tatib ko'rib bilib olishlari kerak. Birdaniga ko'p sezgilar yordamida idrok etish mumkin bo'lgan narsalarni iloji boricha, bir necha sezgilar yordamida idrok etish lozim".

Ya.O. Kominskiy o'z muloxazalarini mustaxkamlash uchun quyidagi fikrni aytadi. "Eshitganni aytib beradigan o'nta kishidan o'z ko'zi bilan ko'rgan bitta guvoh yaxshi" Kominskiy o'z xulosasida o'quvchilarni boshqarishi narsalar haqidagi kuzatishlari va guvohliklari emas, balki o'sha narsaning o'zini bilishga va tadqiq etishga o'rgatish zarur. [6] Maktab amaliyotida ham tasdiqlaganimizdek, darsda o'rganiladigan xodisaning eng muxim tomonlari aniq ifodalaydigan, ana shu belgilarni avval ajratishda keyin guruhlashda, umumlashtirishda o'quvchilarga halaqit beradigan ortiqcha alimentlardan xoli ko'rsatmali qo'llanmalardan shuningdek, obrazli tasvirlar, sxematik tasvirlarga uyg'unlashgan xodisa o'quvchilarning fikrlarini muayandan mavxumga inson yo'naltiradigan qilib ishlagan ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanish g'oyat samarali tadbirdir.

Boshlang'ich sinflarda obektlardan o'zini namoyish etish yoki ular bilan bevosita tabiatda tanishish, darslarning narsalarning o'zidan iborat tarqatmali materiallarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Rasmi ko'rsatmali qo'llanmalar Manzara tasvirlari, diofilmlar samarasi kamroq bo'lsada, ichki ular orqali ham u yoki bu narsalar to'g'risida yaxlit taassavurlar hosil qilishi mumkin. Aralash ko'rsatmali vositalar to'plami o'quv jihozlari muxim elementi bo'lishi mumkin. Ular dars vaqtida turli ko'rsatmali vaziyatlarni yaratish, tez o'zgartirish va birlashtirishda yordam beradi. Buning uchun rasmni materiallar foydalanadi yoki doskaga bo'r bilan rasmlar va chizmalar chiziladi va har xil yozuvlar bajariladi. Maskur vositalar jumlasiga magnitli taxta va flanim grafiklar ham kiradi. Ular didaktik imkoniyatlarni bir xil.

Shuni takidlash lozimki, ko'rsatmali qurollarni, shu jumladan, ta'limni texnik vositalarini universallashtirish yaramaydi. Ular boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qitishda beqiyos katta ahamiyatga ega. Ammo, o'quv jarayonida audiavizual qo'llanmalar ahyon-ahyonda boshqa ko'rsatmali vositalardan foydalaniladi. [7.22-23]

Uning esa quyidagi variantlari bor:

1. Dasturdagi ashuolarni qayta ishlash mavzusi bo'yicha kirish darsida o'quv filmini namoyish etish va keyingi darslarda kino kolsovkalar, kinofragmentlar, diapozitivlar, diofilmlar va jadvallarni qo'llash.

2. Mavzuni xususiy masalalari diofilmlar, jadvallar, namoyish etish va keyingi darslarda kinokolsovkalar, jadvallarni qo'llash.

3. Darsda o'qituvchining tushunishi bilan birgalikda diofilmlar ko'rilishi dars oxirida o'quv filmini namoyish qilish.

4. O'quvchilarning tasavvurini kengaytirish shakllanadigan tushunchalar mazmunini to'liqligini tayinlash uchun ekran qo'llanmalarining bitta seriya ichidan foydalanib, o'quv materialini ishlab, chiqish va ularning boshqa to'plamini qo'llab, bilimlarini mustahkamlash. Ko'rsatmali vositalar turli didaktik vazifalar va imkoniyatlarni nazarda tutib, darsda ularni kopleks xolda qo'llash talab qilinadi. Ana shu taqdirdagina dars har bir bilim vazifasini hal qilishda eng yuqori samaraga erishishi mumkin. Shular bilan birga o'rganilayotgan xodisaning turli jihatlarini yoritish lozim bo'lgandagina har xil ko'rsatmalardan foydalanishi o'zini oqlaydi. Mazkur jihatlarining har birin ko'rsatmalilikning ma'lum turi yordamida ishonarli tarzda va tuta yoritish mumkin. Ko'rsatmali vositalarni tanlashda ularni imkoniyatlarini har bir o'quvchi predmetning o'ziga xos xususiyati va har qaysi darsning mazmuni bilan taqqoslash lozim.

Ko'rsatmalilikning quyidagi har xil turlaridan foydalaniladi:

1. Tabiiy ko'rsatmalilik o'quvchilarni mavjud obektlar; o'simliklar, hayvonlar, mishirallar va hokozolar bilan tanishtirish taqozo etadi. Tabiiy ko'rsatmalilikni sinfda ham, ekskursiya vaqtida ham namoyish etish mumkin.

2. Hajmi ko'rsatmalilik-mavjud olamni xajmni aks ettirishdir. Bu esa fotosur'at, rasm diofilm va diopozitivlardan iboratdir.

3. Ovozli ko'rsatmalilik - tovush obrazlarini ifodalash uchun ovozli vositalardan foydalanishi. Gramplastinkalar va magnitafon yozuvlarini eshitish ovozli kino.

4. Ramziy va grafik ko'rsatmalilik Harita, rejalar, sxemalar, chizma va diogrammalar. Ular mavjud voqeylikni shartli umulashgan ramziy ko'rinishda aks ettirish sabablarini ko'rsatib berish.

Maktabda boshlang'ich sinflarda ko'rsatmalilik ana shu barcha turlaridan foydalaniladi. Faqat ular boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga mos kelishi kerak.

Ko'rsatmalilik ayniqsa, o'quvchilar o'rganadigan u yoki bu narsalar to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lmagan paytda juda zarurdir. Ammo shuni unutmaslik kerakki, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish etishga tayyorlamasdan ko'rsatish natijisiga olib kelmasligi mumkin. Ko'rgazmali rasmlarni dars jarayonida yangi mazmuni bayonida yoritib o'tilish ularni tasavvurlarini boyitadi. [8.8-13]

Ko'rsatmalar ilovani yoritishda o'qituvchi sur'atdagi kishilar qahramonlarni tanishtiradilar. Ularda qanday insoniy fazilatlar namoyon bo'lishini aytishi, uning o'tilishimiz tariximizda bo'lib o'tganligi. Undagi obektni yoritish va uning hozirgi xayoti haqida ma'lumotlar berish,

ularni kiyinishi va xatti harakatlarini izohlab o'tishi o'quvchilarda tasavvur olamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilimlarini ya'ni o'quv predmetlarni yaxshi o'zlashtirishda ko'rsatmalilik katta foyda beradi. Shu kabi o'qish darslarida ham ko'rsatmalilikdan keng foydalanish orqali o'quvchilarda bilim va ularning tasavvurlarini boyitish katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning tasavvur qilishi qiyin va boy bo'lmaydi uni boyitish uchun o'qituvchidan pedagogik maxorat katta talab qilinadi. O'qituvchi o'qish darslarida ertak, hikoya masal, doston parchalarni, qissa, she'rlarni ko'rsatmali tarzda matn mazmunini boyitadi va qilishi ularning bilimlarini samarali tanlashlariga ko'maklashadi. O'qish kitobidagi asarlarni yaratishda ularni o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rgazmali qurol tayyorlash lozim sanaladi. Zeroki tarixiy ijtimoiy asar bilan, hikoyaning hozir paytdagi asarlarni bayon qilishda bir xil ko'rgazmalilikdan foydalanib bo'lmaydi. [9.38-42]

Shuning uchun shu xildagi matnlarni bayon qilishda uning ko'rsatmali qurolining oddiy elementiga ham e'tibor berish zarur xisolanadi chunki o'quvchi o'z tasavvurini shu ko'rsatmali qurol orqali asarni tasavvur etadi va xotirasiga joylaydi. Ularni to'g'ri tasavvur hosil qilishi uchun ham ko'rgazmali qurolga katta ahamiyat beriladi.

O'qituvchidan har bir o'qish darsiga ko'rgazmali qurol tayyorlash dars samaradorligini oshiradi va uni kafolatlaydi, uning sifati yaxshilashiga o'zlashtirish darajasini oshishga, vaqtning unumli bo'lishiga olib keladi.

Masalalar bilan ishlashda asosan ko'rgazmali qurollar hayvonlar, parandalar, o'simliklar dunyosi orqali bayon etiladi va insonlarni turli xil haraktlarini ularni fazilat va xislatlarni yaxshi yomon, ayor muhombir yolg'onchi ishbilarmon kishi va shu kabi insonlarni hayvon majoziy obrazlar orqali bayon etiladi.

Masalning ko'rgazmalari ko'proq hayvonlar orqali ifodalanadi va asosiy obekt bo'lib o'tgan tabiat qo'yni hisoblanadi. Masal ko'rgazmasida insonga xos fe'l atvorlarini yoritishda turli hayvonlardan foydalaniladi. Masaldagi ko'rgazmalilikning to'g'ri tanlashishi juda muxim sanaladi. Hayvonlarni inson fe'l atvoriga o'xshatishda o'qituvchidan kuchli bilim va mahorat talab qilinadi. Chunki o'quvchilar insondagi fe'l atvorlarni qanday namoyon bo'lishi shu hayvonlarda ko'radi va shuning uchun ham tanlangan hayvon obrazi shunga mos kelishi lozim. [10.7-8]

Bundan tashqari ilmiy-ommabop matnlar ham ko'rsatmalilikni talab qiladi. Ko'p xollarda ilmiy-ommabop matnlar hozirgi paytda tegishli bo'lib unda yoritilayotgan mavzu va unga tegishli ko'rsatmali qurollar bilan beriladi. Badiiy janrning barcha turlarini o'rganishda ko'rsatmalilikni unga mos tarzda tayyorlash lozim sanaladi. Bu narsa juda katta ahamiyatga ega bo'lib o'qish darslarini samaradorligini oshishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishda ta'lim qoidalari, jumladan uning ko'rgazmalik printsipi va usullari muhim rol

o‘ynaydi. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi ta’limning boshqa printsiplari bilan bir qatorda ko‘rsatmalilik qoidasi va usullaridan samarali, ijodiy foydalanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. – T.: “O‘qituvchi”, 2011. – B. 94 -112.
2. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari.- T.: «O‘qituvchi», 2004. – 176 bet.
3. Husanboyeva Q. O‘qitishning zamonaviy metodlari va adabiy ta’lim. Til va adabiyot ta’limi. 2003. 2-son. -34-37 betlar.
4. Holiqov E. Interfaol usullar. «Ma’rifat» gazetasi. 2004. 7-son.
5. Husanboyeva Q. Ta’limning zamonaviy texnologiyalari. Til va adabiyot ta’limi. 2003. 3-son -28-32 betlar.
6. Bo‘ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta’lim. 2004. 3-son. - 34-38 betlar.
7. Mamatova G. Ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Boshlang‘ich ta’lim. 2004. 3-son. - 22–23 betlar.
8. Inomova M. Ta’limga yangicha yondashuv. Boshlang‘ich ta’lim. 2000. 5- son, - 8- 13 betlar.
9. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. Xalq ta’limi. 1999, 1-son, -38 – 42 betlar.
10. Husanboyeva Q. Bola o‘ylasin, izlansin, mustaqil fikrlasin. Boshlang‘ich ta’lim. 2003. 4-son. -7-8 betlar.
11. Zayniddinova M. O‘quvchilarning mustaqil fikr faoliyatini rivojlantirish omillari. Xalq ta’limi. 2004. 1-son, - 32-37 bet.